



“MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilish bayoni

№ 2

Toshkent shahri

2025-yil “18”-mart

- Raislik qiluvchi:** N. Ismoilova - “MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi bosh shifokori;
- Ishtirok etganlar:** D. Sabirova - “MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi bosh buxgalteri vazifasini bajaruvchisi;
U.Maxmudova - “MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi Boshlang‘ich kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi;
“MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi xodimlari.
- Kun tartibi:** Joriy yilning 5 mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha bergan topshiriqlari yuzasidan muloqot

(N. Ismoilova , U.Maxmudova ,D.Sabirova...)

Yig‘ilishni “MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi bosh shifokori N. Ismoilova kirish so‘zi bilan ochib, yig‘ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi. Hozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida ko‘plab ishlar olib borilayotganligi va bu illatni batamom yo‘q qilish kerakligiga to‘xtaldi. Bosh shifokor N.Ismoilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari hamda xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish borasida fikr-mulohazalar bildirib, ogohlantirish berib o‘tdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish masalasi bugungi kunda juda ham muhim, dolzarb masala ekanligini, korrupsiya jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining

noroziligiga olib kelishini, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmasligini, bu illatga qarshi kurashishga barcha mas'ul ekanligi ta'kidladi.

“MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi Boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi U.Maxmudova kun tartibidagi masala, ya'ni bugungi kun mavzusiga aylanib borayotgan korrupsiya masalasi, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali dasturlarni amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida gapirdi.

Shundan so'ng “ MTRK poliklinikasi” davlat muassasasi bosh buxgalteri vazifasini bajaruvchisi D.Sabirova so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “ Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ-240-sonli qarori ijrosi yuzasidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan hisobchi(buxgalter)larning funksiyalari bilan bog'liq faoliyatning xavf-xatarini pasaytirish, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarning oldini olish va amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishi to'g'risida ma'ruza qildi va bulardan tashqari davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi quyidagilarga majburligi haqida alohida ta'kidlab o'tdi:

O'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan **o'z shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyish;**

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida **manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik;**

mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda **o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini yoki maxsus bo'linmalarni xabardor qilishi;**

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni **bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga(harakatsizlikka) majburlamasligi;**

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan **ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;**

boshqa xodimlarga nisbatan **o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi;**

xizmat mavqe'ini suiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga intilmasligi.

Yig'ilish so'ngida shifokor fizioterapevt M.Kurbanova, Hamshira M.Saidxodjayeva va boshqalar o'z savollari bilan qatnashib, barchaga kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi va bunday muloqotlar davomiy bo'lishi jamoada namunaviy muhit shakllanishiga yana bir omil bo'lishi haqida to'xtalib o'tildi.

Bayonni tuzuvchi



Sh. Axmedova